

TARJIMA TRANSFORMATSIYALARI EKVIVALENTLIKKA ERISHISHNING MAXSUS TURI SIFATIDA

*U. Matmurotova*¹

Annotatsiya:

Bugungi kunda madaniyat va tillar o'rtasidagi samarali muloqot ta'minlashda tarjimaning roli kundan kunga ortib bormoqda. Ushbu maqolamiz tarjima sohasida ekvivalentlik muamolarida transformatsiyalardan foydalanish hamda ularning turlari ochib berishga qaratilgan. Tadqiqot davomida transformatsiya turlarini turli olimlar tomonidan turlicha talqin etilganligi ham yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tarjima, ekvivalentlik, transformatsiya, leksik transformatsiya, grammatik transformatsiya, stilistik transformatsiyalar.

doi: <https://doi.org/10.2024/md3zkr18>

Badiiy tarjimada umuman olganda tarjima sohasida ekvivalentlikka erishish asliyat matnining asl ma'nosini o'quvchiga yetkazib berishda yordam beradi. Ekvivalentlikka erishishda juda ko'plab olimlar o'z fikr mulohazalarini bildirib o'tishgan (A.D.Shvetser, Y.Resker, Vinay va Darbelnet. Y. Nida). Baker ekvivalentlik muammosini hal qilish uchun sakkizta kuchli strategiyani belgilab berdi: umumiyroq so'z bilan tarjima qilish (yuqori); ko'proq neytral/kam ifodali so'z bilan tarjima qilish; madaniy almashtirish orqali tarjima qilish; o'zlashtirma so'z yoki o'zlashtirilgan so'zni tushuntirish yordamida tarjima; tegishli so'z yordamida parafraza orqali tarjima qilish; bir-biriga bog'liq bo'lmagan so'zlar yordamida parafraza orqali tarjima qilish; tushurib qoldirish orqali tarjima va tasvirlash orqali tarjima [1:24-46].

Tarjimada ekvivalentlikka erishish uchun transformatsiya usullardan foydalanishga to'g'ri keladi. "Transformatsiya" - bu manba matndagi bir til shaklining tarjima matnidagi boshqa til shakliga o'zgarishini anglatadi, bundan tashqari, til shakli nutqning bir qismi, so'zlar birikmasi yoki grammatik qurilish sifatida tushuniladi. Beloruchev transformatsiyani "ko'pgina tarjima usullarining asosi" deb atagan holda, u rasmiy yoki semantik tarkibiy qismlarni o'zgartirishdan, ya'ni uzatilishi kerak bo'lgan ma'lumotni saqlab qolgan holda manba matnining leksik, grammatik va semantik o'zgarishlaridan iborat deb hisoblaydi [5:57]. Hozirgi vaqtda tadqiqotchilar turli tasniflarga ega bo'lgan tarjima transformatsiyalari tipologiyasi bo'yicha konsensusga erisha olishmadi. Fitterman A.M. va Levitskaya T.R. tarjima transformatsiyalarini uch turga ajiratadi:

1) Grammatik transformatsiyalar (almashtirish, tushurib qoldirish va qo'shish, gaplarni qayta tuzish va almashtirish)

2) Stilistik transformatsiyalar (sinonimik almashtirishlar va tavsifiy tarjima, kompensatsiya va almashtirishning boshqa turlari).

¹ *Umida Matmurotova Baxtiyor qizi, Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktranti*

3) Leksik transformatsiyalar (gaplarni almashtirish va qo'shish, spetsifikatsiya va umumlashtirish, shuningdek, tushurib qoldirish) [2:98]. Transformatsiyalar yuzasidan ma'lum bir boshqa tadqiqotchilar ham izlanish olib borganligini guvohi bo'lamiz (L.S.Barxudarov, V.N.Komissarov, Y.I.Retsker, L.K.Latishev, Nyumark).

Kazakova T. A. funksional transformatsiyasi uch guruhga ajratadi:

1. Leksik va semantik transformatsiyalar;
2. Grammatik transformatsiyalar;
3. Stilistik transformatsiyalar [4].

A. I. Klishinning fikricha, transformatsiya - bu asl matndagi bir lisoniy shaklning tarjima matnida boshqa lisoniy shakl bilan almashtirilishi, bunda lisoniy shakl deganda nutqning bo'lagi, so'z birikmasi yoki grammatik konstruktsiya tushuniladi. U transformatsiyani quydagi turlarga ajratadi:

- a) Grammatik transformatsiyalar (yarim qisman, sintaktik)
- b) Leksik transformatsiyalar (konkretlashtirish, umumlashtirish, metonimik antonomik, integral, kompensatsiya)[3:30].

Umumlashtirilgan nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, transformatsiyalar ikki xil: leksik va grammatik va o'z navbatida ular ham ma'lum turlarga qisqartiriladi.

Leksik transformatsiyalar - transkripsiya (yoki transliteratsiya), spetsifikatsiya, umumlashtirish, modulyatsiya, antonimik tarjima, kompensatsiya, qo'shimchalar, tushurib qoldirishni o'z ichiga oladi.

Transkripsiya (transliteratsiya) - fonema (yoki grafema) darajasidagi tarjima. Ma'lumki, yozma nutqda grafema yoki harf belgisiga mos keladigan fonema mustaqil ma'noga ega emas, u tilda faqat semantik jihatdan farqlovchi rol o'ynaydi. Shunga qaramay, tarjima amaliyotida manba tilning fonemalari (yoki grafemalari) o'z tillarida artikulyatsiya va akustik xossalari bo'yicha yaqinroq bo'lgan fonemalar bilan almashtirilgan holatlar mavjud. Asl til birliklari va tarjima til o'rtasidagi muvofiqlik fonema darajasida o'rnatiladigan tarjimaning bunday turi "tarjima (yoki amaliy) transkripsiya" deb ataladi.

Spetsifikatsiya. (Konkretlashtirish) Transformatsiyaning bu turi manba matndagi (AT) eng keng ma'noli so'z yoki iborani tarjima matnidagi (TT) eng tor ma'noli so'z yoki ibora bilan almashtirishni o'z ichiga oladi va uni konkretlashtiradi. L. L. Nelyubinning fikricha, konkretlashtirish - umumiy tushunchani o'ziga xos tushuncha bilan almashtirish; tarjima uchun tanlangan lingvistik ma'noni aniqlashtirish maqsadida uni mantiqiy o'zgartirish usuli; tarjima texnikasi, uning mohiyati shundaki, tarjima birligi asl nusxadan ko'ra o'z ma'nosida aniqroqdir.[6:87]

Umumlashtirish. Bu atama spetsifikatsiyaga qarama-qarshi hodisani, boshqacha qilib aytganda, eng tor ma'noga ega bo'lgan asliyatdagi til birligini keng ma'noga ega bo'lgan tarjima til birligi bilan almashtirishni nazarda tutadi. A.I.Klshin umumlashtiruvchi transformatsiyani asl matndagi muayyan tushunchani tarjimada umumiy tushuncha bilan almashtirish deb belgilaydi.[3:48]

Modulyatsiya (ta'sirni sabab bilan almashtirish va aksincha). Tarjima jarayonida ko'pincha tushunchalar o'rtasidagi sabab-natija munosabatlariga asoslangan leksik almashtirishlar sodir bo'ladi. Masalan, AT so'zi yoki iborasi tarjima paytida TT so'zi yoki iborasi bilan almashtirilishi mumkin, bu tabiiy bog'lanishlarga ko'ra tarjima qilinayotgan AT birligi tomonidan ko'rsatilgan harakat yoki holatning sababini bildiradi.

Antonimik tarjima keng tarqalgan leksik-grammatik transformatsiya bo'lib, uning mohiyati tasdiqlovchi konstruksiyani inkorga yoki aksinchasiga o'zgartirishdan iborat.

Antonimik tarjimaning alohida holati qiyosiy yoki ustunlik darajasidagi sifat yoki qo'shimchani ijobiy daraja yoki teskari darajadagi sifat yoki qo'shimcha bilan almashtirishdir.

Kompensatsiya - bu almashtirishning maxsus turi. Ushbu uslub bir tilning ayrim elementlarining boshqa tilda ekvivalenti bo'lmagan hollarda qo'llaniladi. Tarjimon xuddi shu ma'lumotni boshqa vositalar yordamida yetkazadi va matnning asl nusxadagi o'sha joyida bo'lishi shart emas.

Grammatik o'zgarishlarni esa ikki turga bo'lish mumkin: morfologik va sintaktik.

Morfologik transformatsiyalar tarjima jarayonida artikl ma'nosini ko'chirish, gap bo'laklarini almashtirish, sonni grammatik almashtirish, grammatik zamonni almashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini o'z ichiga oladi.

Gap qismlarini almashtirish (olmoshni o'zgartirish, sifatni ot yoki ergash gapni sodda gap bilan almashtirish, otni fe'l bilan almashtirish va aksincha, fe'ning shaxs shaklini kesim bilan almashtirish).

Sonlarni grammatik almashtirish. Hisoblanadigan otlar har ikkala tilda ham birlik va ko'plik shakllariga ega bo'lib, ular o'xshash, biroq bir qator turli holatlarda ularning qo'llanilishi har xil bo'ladi.

Grammatik zamonni almashtirish. Rus va o'zbek tilida ingliz tilidan farqli ularoq, aspektning grammatik kategoriyasi mavjud bo'lib ular tarjimada turlicha kelishi mumkin.

Sintaktik transformatsiyalar morfologik transformatsiyalarga nisbatan xilma-xildir. Bularga quyidagilar kiradi: sintaktik assimilatsiya, o'rin almashtirish, gap bo'laklarini almashtirish, aktiv gapni passivga almashtirish yoki aksincha, sintaktik bog'lanish turini almashtirish, qo'shish, tushurib qoldirish kabilardan iborat bo'ladi.

Sintaktik assimilatsiya - (so'zma-so'z tarjima) transformatsiyaning bir turi bo'lib, faqat boshlang'ich tilda ham, tarjim tilda ham parallel sintaktik tuzilmalar mavjud bo'lganda sodir bo'ladi.

O'rin almashtirish - tarjima matnidagi lingvistik komponentlar tartibining asl matnga nisbatan o'zgarishi. Bu komponentlar so'zlar, iboralar, bosh va ergash gaplar va butun gaplar bo'lishi mumkin.

Gap bo'laklarini almashtirish Bunday transformatsiya jumlaning sintaktik tuzilishini qayta qurishga olib keladi, bu gapning asosiy qismlarini, ayniqsa sub'ektni almashtirish bilan bog'liqdir.

Aktiv gapni passivga almashtirish yoki aksincha - faol fe'lni passiv fe'l bilan almashtirish yoki aksincha passiv fe'lni faol fe'l bilan almashtirish kiradi.

Sintaktik bog'lanish turini almashtirish - Bunga quyidagilar kiradi: sodda gapni murakkab gapga almashtirish, bog'lovchini bog'lanmagan ergash gap bilan almashtirish.

Qo'shish - qo'shimchani qo'llash sababi tarjima paytida jumla tarkibining sintaktik qayta tuzilishi bo'lib, bunda vaqti-vaqti bilan gapga ba'zi elementlarni kiritish kerak bo'ladi.

Tushurib qoldirish - qo'shishning mutlaqo teskarisidir. Tarjima qilinayotganda semantik jihatdan ortiqcha hisoblangan, boshqacha qilib aytganda, matndan ajratib

olinadigan ma'nolarni ifodalovchi so'zlar ko'pincha tushirib qoldiriladi. Umuman har qanday til tizimida ham, o'ziga xos nutqiy asarlarda ham ortiqchalik darajasi juda yuqori bo'lib, bu tarjima jarayonida tushurib qoldirish deb ataladigan tarjima texnikasiga murojaat qilish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, tarjima jarayonida tarjimn madaniy tafovutlar tufayli turli xil qiyinchiliklarga duch keladi va ushbu muammolarni yechish va ekvivalentlikka erishish maqsadida turli xil transformatsiya turlariga murojaat qiladi. Transformatsiya ko'pgina tarjima usullarining asosidir. U uzatish uchun mo'ljallangan ma'lumotni saqlab qolgan holda manba matnning leksik yoki grammatik o'zgarishlar yoki semantik o'zgarishlar komponentlarini o'zgartirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Baker, M. (2018). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. London and New York: Routledge. pp. 24-46

[2]. Leviskaya, T.R. *Teoriya i praktika perevoda s angliyskogo yazika na russkiy* / T.R. Leviskaya. – M., 1963. – 125 s

[3]. Klishin A. I. *Praktika perevoda angliyskix tekstov*. — SPb.: Andra, 2003. c. 48. 87s.

[4]. Kazakova T. A. (2001) *Practical bases of translation SPB publishing house Soyuz* -320 p

[5]. Minyar-Beloruchev, R.K. *Obuyaya teoriya perevoda i ustniy perevod* / R.K. Minyar-Beloruchev. – M., 1980. – 269 s.

[6]. Nelyubin L.L. *Tolkoviy perevodovedcheskiy slovar*. M., 2006.c. 87